

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MA'NAVIY-
MA'RIFIY QIYOFASINI SHAKLLANTIRISHNING
DIDAKTIK IMKONIYATLARI**

NIYOZOVA MAFTUNA NORMAXMAT QIZI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Maktabgacha ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

maftuuun93@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada, yangi O‘zbekistonda ma’rifatli jamiyat barpo etishda maktabgacha ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni samaradorligini oshirishning ustuvor jihatlari, Maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish, barkamol avlod ma’naviy tarbiya jarayoni, pedogog-tarbiyachilar tomonidan to’g’ri tashkil etilishi, kasbiy faoliyat jarayonida ma’naviy-ma’rifiy islohotlar yo’lida amalga oshirilishi lozim bo’lgan ustuvor vazifalarni amaliyotga to’g’ri va holis tadbiq etish yuzasidan fikr-mulohazalar yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Maktabgacha ta’lim tashkiloti, ma’naviy-ma’rifiy islohotlar, ma’naviy tarbiya, axloqiy tarbiya, tarbiyachi-pedogog mahorati, barkamol avlod.*

**ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ
ДУХОВНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ
СФЕРЫ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА**

Аннотация: *В данной статье рассматриваются приоритетные аспекты повышения эффективности духовно-просветительской работы в системе дошкольного образования в построении просвещенного общества нового Узбекистана, совершенствование системы дошкольного образования, процесс гармоничного духовного воспитания поколения, правильная организация этого процесса педагогами, а также правильная и объективная*

реализация приоритетных задач, которые должны быть реализованы в процессе духовно-просветительских реформ в процессе профессиональной деятельности.

Ключевые слова: Организация дошкольного образования, духовно-образовательные реформы, духовное воспитание, нравственное воспитание, воспитательно-педагогическое мастерство, гармоничное поколение.

DIDACTIC POSSIBILITIES OF FORMING THE SPIRITUAL- EDUCATIONAL FORM OF PRESCHOOL CHILDREN

Abstract: *This article discusses the priority aspects of increasing the effectiveness of spiritual and educational work in the preschool education system in building an enlightened society in the new Uzbekistan, the improvement of the preschool education system, the process of harmonious spiritual upbringing of the generation, the correct organization of this process by educators, and the correct and objective implementation of priority tasks that should be implemented in the process of spiritual and educational reforms in the process of professional activity.*

Keywords: *Preschool education organization, spiritual and educational reforms, spiritual education, moral education, educator-pedagogical skills, harmonious generation.*

KIRISH

Qadimdan o'zbek xalqi bola tarbiyasida uning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib kelgan. Bunga qaysi adabiyot yoki asarni qo'lga olishimizdan qat'iy nazar insonning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga doir fikr mulohazalarni uchratishimiz tabiiy holga aylangan. Ushbu kitoblarning negizidagi mohiyat esa ta'lim ya'ni ilm olmagan inson ruhsiz tana ekanligi to'g'risidagi g'oyalarni o'zida mujassam etadi. Aynan inson kamolotida ta'lim va tarbiya insonni ulug'likka

yetaklovchi omil ekanligi va u orqali inson o'z ilmini kelajak avlodga yetkazib berish orqali uni abadiylikka muhrlashi mumkinligiga guvoh bo'lamiz.

ASOSIY QISM

Axloq kishilarning xulq-atvor normalari va qoidalarini, ularning o'z-o'ziga, boshqa kishilarga, mehnatga, jamiyatga munosabati kabi axloqiy tushunchalarni o'z ichiga oluvchi ijtimoiy ongning alohida bir shaklidir. Axloq sinfiy xususiyatga ega, chunki axloq his-tuyg'u, tushuncha va prinsiplar ma'lum ijtimoiy formatsiyaga xos bo'lib, ijtimoiy tuzum o'zgarishi bilan u ham o'zgaradi. Bizning jamiyatimizdagi axloq, eng yaxshi umuminsoniy xulq normalarini o'z ichiga olgan bo'lishi kerak. Insonning barkamolligi uning ma'naviy dunyosi qandayligi bilan belgilanadi. Yaxshi tarbiya kishining qimmatbaho boyligidir. O'zbek xalqining ma'naviyati haqiqatgo'y va adolatli bo'lish, jaholat va qabihlik yo'lini to'sish, insoniylik, mexr-shafqat, ma'rifat, do'stlik, mardlik, birodarlik, mehmondo'stlik, poklik, xushxulqlik, insof, vatanparvarlik kabi insoniy fazilatlarni singdirishga chaqiradi.

O'zbek xalqining urf-odatlarini, turmush tarzi, ta'lim-tarbiya, madaniyat an'analari moziyning uzoq-uzoq asrlariga borib taqaladi. Hozirgi va kelajak avlodimiz kishilari o'zbek milliy ma'naviyatini yaxshi bilishlari va unga rioya qilishlari lozim. Shundagina jamiyat to'q, farovon, kishilar osoyishta va madaniy hayot kechiradilar. Bu hamisha hamma avlod tomonidan e'tirof etilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'naviyat saboqlari mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishga oid kasbiy bilim va ko'nikmalarini malaka talablari asosida chuqurlashtirish, yangilash va ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish hozirgi kunning talablaridan biriga aylandi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'naviyat saboqlari mashg'ulotlarida fasllar, bayram va tadbirlarga oid musiqa asarlari ustida ishlash, bayram va tadbirlar rejasini ishlab chiqish, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ertaliklar va bayramlar davlatimizning muhim voqealari bilan bog'liq tarzda tashkil etiladi.

Jamiyat taraqqiyotida tarbiya jarayonining ahamiyati beqiyos. Bunda maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga

undash va bu xatti-harakatini sekin-asta ko'nikmaga aylantirib, tayanch kompetensiyalarini shakllantirib borish lozim.

Tayanch kompetensiyalar - bolani kim va qanday kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar, hayotda, kasbiy faoliyatda, ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatli bo'lishi uchun egallashi lozim bo'lgan layoqatlar, qobiliyatlar va hayotiy ko'nikma va malakalar majmuidan iborat. Bunda har bir maktabgacha yoshdagi bola kommunikativ bo'lishi, axborot bilan ishlay olishi, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirishi, ijtimoiy faol bo'lishi, umummadaniy hislatlarga ega va yangiliklardan xabardor bo'lishi nazarda tutiladi. Bola tarbiyasi uzoq muddatli, uzluksiz davom etadigan murakkab jarayon. U tarbiyachi (ota-ona, ustoz-murabbiy, pedagog)lardan doimo xushyorlik, sergaklik, mahorat, bilim talab qiladi. Shu tarzda bolaning asta-sekin aqliy salohiyati takomillashib, u komillikka intilib boradi.

Pedagogika fani bolaning ma'naviy- axloqiy rivojlanishida tarbiya va ta'limni muhim omil deb hisoblaydi. Pedagogika va ruhiyatga oid juda ko'p tadqiqotlar natijalarining ko'rsatishicha, maktabgacha tarbiya davri bolaning ma'naviy shakllanishida eng muhim bosqichdir. Xuddi mana shu davrda ma'lum maqsadga qaratilgan ta'lim-tarbiya ta'sirida shaxsning axloqiy sifatlari shakllana boshlaydi, 6-7 yoshga borganda, esa ijobiy xulq normalarining ancha barqaror shakli yuzaga kelib, bola tevarak-atrofdagilar bilan bo'ladigan munosabatda ana shu egallab olgan axloq-qoida va normalari nuqtai nazaridan ish tutadigan bo'lib qoladi, shuning uchun bolalarga ilk yoshidan boshlab axlokiy tarbiya berib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriluvchi ma'naviy-ma'rifiy ishlar mohiyatini to'la ochib berish uchun "ma'naviyat" va "ma'rifat" tushunchalarining lug'aviy ma'nolarini tahlil etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ma'naviyat so'zi – arabcha "ma'nolar majmui"– kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmuini anglatadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida esa, tarbiya obyekti alohida xususiyatlarga ega. Ular – ijtimoiy munosabatlarga endi kirishayotgan tabiat, jamiyatga, Vatanga, tarixga, o'z-o'ziga

munosabatlari to'liq anglanmagan bolalardir. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimi"ni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlar tizimining g'oyaviy boyitilgan sinonimi sifatida tushunishiz mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning amaliy-pedagogik maqsadi – bu maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy madaniyatni shakllantirishdir. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar natijasi bolaning ma'naviy madaniyati va uning tarkibiy qismlariga pedagogik ta'sirining samarali yetib borishiga bog'liq. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkazilayotgan tarbiyaviy tadbirlar, maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ta'lim-tarbiya tizimining muhim qismidan biridir. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarida ma'naviy madaniyatni shakllantirishning amaliy ahvolini o'rganish bu sohani samaradorligini oshirish uchun:

- Ma'naviy-ma'rifiy ishlar nazariyasi va amaliyoti orasidagi pedagogik ziddiyatni bartaraf etish,
- Bolalar bo'sh vaqtini unumli tashkil etishga qaratilgan tashkilotlarning tarbiyaviy tadbirlari yangi tizimini ishlab chiqish;
- Tarbiyachilarni ma'naviy-ma'rifiy ishlarning nazariy va uslubiy asoslari bilan qurollantirish;
- Bolalar ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillarni zararsizlantirishning ma'naviy-ma'rifiy chora-tadbirlarini bugungi kun xarakteridan kelib chiqib ishlab chiqish;
- Mazkur yo'nalishda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va oila, mahalla hamkorligining samaradorligini oshirish;
- Ma'naviy-ma'rifiy ishlarda milliy ma'naviy qadriyatlardan foydalanishning ilmiy-uslubiy, tashkiliy shart-sharoitlarni ta'minlash va boshqalar.

Ma'naviy- axloqiy tarbiya jarayonida bola axloqiy jihatdan kamolga yetadi. Ma'naviy-axloqiy tasavvurlarning rivojlanishi jarayonida eng avvalo ular o'zlarining boshqalar bilan bo'ladigan munosabatlarini ongli tushuna boshlaydilar,

tengdoshlari va kattalar bilan bo'ladigan munosabatlarida axloq saboqlari rivojlana boradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bolalarni ma'naviy tarbiyalash uchun xizmat qiladi va ma'naviy-axloqiy tarbiyada samarali foydalanishning muhim sharti sifatida qaraladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi faoliyatning mazmunan milliy, ma'naviy, axloqiy qadriyatlarimiz, madaniyatimiz, boy merosimiz bilan uyg'un holda shuningdek zamonaviy shakllar va interaktiv uslublar asosida tashkil etilishiga ham bog'liqdir.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Azimov Muxammadjon Nemat o'g'li "Maktabgacha ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samaradorligini oshirishning ustuvor jihatlari" "Yangi O'zbekistonda ma'naviyat sohasidagi tadqiqotlarning monitoringi va optimallashtirishning dolzarb vazifalari" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi «Afzalzoda books», 2023
2. Nosirov O'. "Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish". Uslubiy qo'llanma, Toshkent-2010.
3. A.Aliyev "Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat" T.: Akademiya-2007.
4. Niyozova M.N. "Methodological approaches to the formation of spirituality and moral qualities in preschool children" Journal of Applied Science and Social Science 2025 yil aprel
5. Niyozova M.N. "Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy- ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini takomillashtirish" Tadbirkorlik va pedagogika Ilmiy-uslubiy jurnal 2025-yil 3-son
6. Niyozova M.N. "The effectiveness of interactive methods in teaching moral and cultural values to preschool children" International journal of artificial intelligence 2025 yil aprel